XALQ DEPUTATLARI QORAKO’L TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust VII-14-110-2-37-K/25 Qorako’l tumani

Qorako‘l tuman mahalliy budjetining 2024-yil 3-chorak *(9 oylik)* ijrosi hamda mahalliy budjetga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida

2024-yil 3-chorak yakuni bo‘yicha Qorako‘l tuman mahalliy budjeti daromadlari 24,3 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shundan, soliq turlari kesimida: - aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha 2 590,0 mln.so‘m;

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq bo‘yicha 8 118,9 mln.so‘m;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliq bo‘yicha 355,4 mln.so‘m;
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha 380,8 mln.so‘m;
- jismoniy shaxslarning yer va mol mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha 9 984,9 mln.so‘m;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha 757,4 mln.so‘m;
- davlat boji bo‘yicha 1 371,6 mln.so‘m va boshqa mahalliy budjet tushumlari bo‘yicha 749,9 mln.so‘m mablag‘lar 2024-yilning 3-choragida mahalliy budjetga tushirildi.

O‘z navbatida, mahalliy budjet xarajatlari 2024-yilning to‘qqiz oyligida 197,4 mlrd.so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, ushbu mablag‘larning 67,7 foizi, ya’ni 133,5 mlrd.so‘m miqdori tumanda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab- quvvatlash xarajatlariga sarflandi.

Jumladan, 2024-yilning to‘qqiz oyligida tuman ijtimoiy soha tashkilotlari xarajatlari *(ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, dori- darmon va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash xarajatlari, qurilish- ta’mirlash va jihozlash va boshqa xarajatlar)*ga quyidagi miqdorda mablag‘lar yo‘naltirilgan:

- maktabgacha va maktab ta’limi sohasiga 34,4 mlrd.so‘m;
- sog‘liqni saqlash sohasiga 82,9 mlrd.so‘m;
- boshqa ijtimoiy soha tashkilotlari (madaniyat, sport va boshqalar) tomonidan 16,2 mlrd.so‘m miqdordagi xarajatlar amalga oshirildi.

Umumiy xarajatlarning 10,7 foizi iqtisodiy sohani rivojlantirishga, 11,7 foizi davlat boshqaruvi organlarining (ish haqi, saqlash va boshqa) xarajatlariga, 0,9 foizi Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xarajatlariga, 9,1 foizi “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga yo‘naltirildi.

2024-yilning to‘qqiz oyligida mahalliy budjetda ko‘zda tutilgan birinchi darajali to‘lovlar o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirildi.

Bugungi kunda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan tuman hokimligi va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda tuman mahalliy budjetining barqarorligini ta’minlash hamda mahalliy budjetdan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirish yuzasidan tegishli chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlari rejasiga tegishli o‘zgartirishlar hamda yuqori budjetdan maqsadli tadbirlar uchun qo‘shimcha ajratilgan mablag‘lar to‘liq hisobga olinmoqda hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 28, 147, va 148-moddalariga asosan tuman mahalliy budjetining ijrosini ta’minlash, budjetda ko‘zda tutilgan xarajatlarni belgilangan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida tuman mahalliy budjetining 2024-yilning to‘qqiz oyligi xarajatlari va daromadlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yuqorida bayon etilganlarga, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24- moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27 va 126-moddalariga asoslanib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qorako‘l tuman mahalliy budjetining 2024-yilning 3-chorak yakunlariga ko‘ra ijrosi hamda ushbu davrda budjet parametrlariga kiritilgan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Norboyevning hisoboti hamda daromadlar va xarajatlar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlari 1-2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. 2024-yilning 3-chorak yakuni bo‘yicha Qorako‘l tuman mahalliy budjeti daromadlari 24,3 mlrd.so‘mni hamda mahalliy budjetdan amalga oshirilgan xarajatlar 197,4 mlrd.so‘mni tashkil etganligi, shuningdek, ushbu daromad va xarajat o‘rtasidagi farq yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga ajratilgan transfertlardan qoplanganligi inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-148-moddalariga asosan tuman mahalliy budjetining ijrosini ta’minlash, budjetda ko‘zda tutilgan xarajatlarni belgilangan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida Qorako‘l tuman mahalliy budjetining 2024-yil 3-chorak yakunlari bo‘yicha xarajatlari hamda 3-chorak daromad rejasining prognoz ko‘rsatkichlari doirasida kiritilgan tegishli o‘zgartirishlar 3-4-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasiga asosan 2024-yil tasdiqlangan budjet parametrlariga favqulotda hamda kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni amalga oshirish zarurati tug‘ilganda, budjet tashkilotlarining so‘roviga asosan, budjet tashkilotlarini saqlash bilan bog‘liq va boshqa zaruriy va kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni amalga oshirish tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan amalga oshirilishi inobatga olinsin hamda amalga oshirilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Norboyev) chorak yakuni bilan tuman xalq deputatlari Kengashiga hisobot kiritib borsin.

5. Tuman soliq inspeksiyasi (SH.Xasanov) hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Norboyev)ga:

2024-yil uchun belgilangan daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini choraklar va oylar kesimida barcha soliq turlari bo‘yicha to‘liq bajarilishini ta’minlash;

budjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy budjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;

mahalliy budjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlash topshirilsin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Husenov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Norboyev), tuman soliq inspeksiyasi (SH.Xasanov), xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari bilan birgalikda:

- tumanda 2024 yilda budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini belgilangan tartibda tuman Kengashiga kiritilishini ta’minlash;

- soliqlar va majburiy to‘lovlarning aniq turlarini ularga biriktirib qo‘yish orqali mahalliy budjetning daromad bazasini tubdan mustahkamlash;

- mahalliy budjetning daromadlarini oshirish uchun tizimli ravishda qo‘shimcha rezervlarni muntazam aniqlab borish;

- tegishli doimiy komissiyalar bilan birgalikda deputatlik va jamoat nazoratini keng jalb qilgan holda, mahalliy budjetni shakllantirishning shaffofligini va uning bajarilishi ustidan tizimli nazoratni o‘rnatish;

- mahalliy budjet daromadlar bazasini mustahkamlash hamda xarajatlarning tasdiqlangan parametrlarini o‘z vaqtida, maqsadli moliyalashtirish, ijtimoiy soha obyektlari va infratuzilmani yanada rivojlantirish va tegishli darajada saqlab turishni ta’minlash ustidan mahalliy davlat hokimiyati organi, moliya va soliq organlarining mas’uliyatini oshirish va javobgarligini kuchaytirish;

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatish topshirilsin.

7. Tuman hokimligi Axborot xizmati (SH.Hamroyev) tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Norboyev) bilan birgalikda Qorako‘l tuman mahalliy budjetining 2024 yil 3-chorak yakunlari bo‘yicha ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun tuman adliya bo‘limiga kiritilsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi TOHIROV XURSHID YAHYOYEVICH

Xalq deputatlari Qorako’l tumani Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-14-110-2-37-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qorakul tuman maxalliy budjeti daromadlarining 2024 yil 9 oylik ijrosi to‘g‘risida MA’LUMOTLAR

(mln.so‘mda)

Daromadlar nomi	Belgilangan reja	Ijro	Farqi	
			(+,-)	%
Aylanmadan olinadigan soliq	7 040	7 298	258	104%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	25 021	25 077	57	100%
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad soligi	984	1 042	58	106%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	915	1 121	207	123%
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 556	6 306	750	114%
Yuridik shaxslar yer soligi	0	24	24	0%
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 086	18 471	-615	97%
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	10	-46	-56	-460%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solik	2 253	1 837	-416	82%
Davlat boji	6 299	4 217	-2 082	67%
Jarimalar	0	330	330	0%
Yig‘imlar	0	81	81	0%
Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	57	43	-14	75%
Boshqa tushumlar	0	2 025	2 025	0%

Даромадлар жами	**67 221**	**67 826**	**606**	**101%**

Xalq deputatlari Qorako’l tumani Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-14-110-2-37-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Qorako‘l tuman maxalliy budjeti xarajatlarining 2024 yil 9 oylik ijrosi to‘g‘risida
MA’LUMOTLAR

(mln.so‘mda)

Xarajatlar nomi	Belgilangan reja	Ijro	Farki	
			(+,-)	%
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab- quvvatlashga xarajatlar - jami	**137 952**	**133 521**	**-4 431**	**97%**
shu jumladan:				
- *Maktabgacha ta’lim tashkilotlari*	25 329	24 064	-1 265	95%
- Umumiy ta’limi tashkilotlari	10 610	10 290	-320	97%
- Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi tashkilotlari	85 519	82 946	-2 573	97%
- Madaniyat	4 268	4117	-151	96%
- Jismoniy tarbiya va sport	12 037	11 922	-115	99%
- Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari hamda jazoni o‘tab kelganlar uchun bir martalik moddiy yordam mablag‘lari	189	183	-6	97%
Iqtisodiyotga xarajatlar	**21 653**	**21 101**	**-552**	**97%**
shu jumladan:				
- Qishlox va suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	6 134	5 933	-201	97%
- Obodonlashtirish boshxarmalari xarajatlari (ish haqi, saqlash, dastur, yo’l va boshqalar)	15 387	15 045	-342	98%
- Yoshlar va Ayollar daftarlariga kiritilgan ayollar va yoshlarni qo’llab-quvvatlash xarajatlari	80	80	0	100%
- Ma’naviy zarar va advokatlik xizmatlari xarajatlari	52	43	-9	83%
Davlat boshkaruv organlarini saqlash xarajatlari	**24 347**	**23 075**	**-1 272**	**95%**
O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	**1 762**	**1 758**	**-4**	**100%**

"Fuqarolar tashabbusi" jamg‘armasi	**19 616**	**17 908**	**-1 708**	**91%**
Boshqa xarajatlar	**0**	**0**	**0**	**100%**
Xarajatlar jami	**205 331**	**197 364**	**-7 967**	**96%**

Xalq deputatlari Qorako’l tumani Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-14-110-2-37-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qorako‘l tumani mahalliy budjetining2024 yil tasdiqlangan budjet parametrlariga2024 yilda hududiy mablag‘ taqsimlovchilar kesimida kiritilgan o‘zgartirishlar

02.12.2024 yil holatiga mln.so’m

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchining nomi	2024 yil tasdiqlangan reja	2024 yil aniqlangan reja	Fark yoki kiritilgan o‘zgarish	Shu jumladan							
					O‘zR Iktisodiyot va moliya vazirligi xamda viloyat iktisodiyot va moliya bosh boshkarmasi tomonidan kiritilgan o‘zgarish hisobidan	Erkin koldik xisobidan	Zaxira jamg‘armasi	Ichki budjetidan kiritilgan o‘zgarish hisobidan	Asoslar			Kiritilgan o‘zgarish
									XDK karorlari (10.05.2024 yildagi VI-94-80-2-37-K/24)	XDK karorlari (30.07.2024 yildagi VI-99-114-2-37-K/24)	XDK karorlari (10.10.2024 yildagi VI-103-131-2-37-K/24)	
x	Qorako‘l tuman budjeti	240 861,5	259 981,7	19 120,2	16 503,1	709,5	1 907,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	28 909,7	43 813,3	14 903,6	14 974,0	0,0	0,0	-70,4	-152,2		101,0	-19,2
2	Sog‘liqni saqlash muassasalari	117 282,8	111 387,0	-5 895,8	-5 947,7	0,0	0,0	51,9	0,0	-82,1	0,0	134,1
3	Madaniyat soxasi muassasalari	4 234,1	4 726,4	492,3	-8,0	46,0	209,8	244,4	0,0	57,0	180,0	7,4
4	Yoshlar ishlari agentligi va sport muassasalari	19 650,8	20 424,7	773,9	888,5	0,0	5,4	-119,9	-35,0	12,5	-19,0	-78,4
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	5 266,0	5 786,8	520,8	507,3	0,0	0,0	13,6	16,0	-8,4	1,3	4,7
6	Qishloq xo‘jaligi soxasi tashkilotlari	3 708,8	4 187,1	478,2	473,2	0,0	0,0	5,0		0,0	2,0	3,0

7	**Ирригация бўлими**	**2 273,6**	**4 073,9**	**1 800,3**	**1 800,3**	**0,0**	**0,0**	**0,0**		**0,0**	**0,0**	**0,0**
8	**Иқтисодиёт ва молия бўлими**	**2 392,0**	**2 593,2**	**201,2**	**161,1**	**80,0**	**0,0**	**-39,9**	**-6,5**	**-50,0**	**11,1**	**5,5**
9	**Туман солиқ инспекцияси**	**4 617,0**	**4 998,2**	**381,2**	**361,2**	**0,0**	**0,0**	**20,0**		**0,0**	**10,0**	**10,0**
10	**Туман хокимлиги**	**52 526,7**	**57 991,2**	**5 464,5**	**3 293,2**	**583,5**	**1 692,4**	**-104,6**	**177,7**	**71,0**	**-286,4**	**-66,9**

Xalq deputatlari Qorako’l tumani
Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-14-110-2-37-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qorako‘l tuman maualliy budjetining 2024 yil 3-chorak yakunlariga ko‘ra daromadlari rejasining ijrosidan kelib chiqib, soliq turlari kesimida prognoz rejaning to‘lik ijrosini ta’minlash maqsadida kiritiladigan o‘zgartirishlar

mln.so’mda

T/r	Daromad turlari	Choraklar davomida kiritiladigan o‘zgartirishlar				
		2024 yil jami	1-chorak (10.05.2024 yil VI-94-80-2-37-K/24-sonli qarorga asosan kiritilgan o‘zgarish)	2-chorak (30.07.2024 yil VI-99-114-2-37-K/24-sonli qarorga asosan kiritilgan o‘zgarish)	3- chorak	4-chorak
1	Aylanmadan olinadigan soliq	0,0	0,0	-75,0	162,0	-87,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solog‘i	0,0	-1 200,0	181,0	-799,0	1 818,0
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan kat’iy belgilangan daromad soloti	0,0	0,0	4,0	17,0	-21,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,0	0,0	59,5	116,0	-175,5
5	Jismoniy shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliq	0,0	0,0	159,0	-1 747,0	1 588,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solog‘i	0,0	0,0	4 335,0	2 878,0	-7 213,0
7	Yer ka’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0,0	0,0	-12,0	-13,0	25,0
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,0	-200,0	-830,0	-1 280,0	2 310,0
9	Davlat boji	0,0	0,0	6,0	1 557,0	-1 563,0
10	Ijara to‘lovi	0,0	0,0	0,0	-2,0	2,0

11	Boshka tushumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Jami		**0,0**	**-1 400,0**	**3 827,5**	**889,0**	**-3 316,5**